

Одним из наиболее перспективных направлений развития финтех-технологий является цифровое кредитование. Онлайн-платформы позволяют значительно ускорить процесс получения кредита, автоматизировать оценку кредитоспособности заемщиков и сократить административные барьеры. Использование алгоритмов анализа больших данных и скоринговых моделей повышает точность оценки кредитных рисков и позволяет банкам расширять доступ к финансированию для новых категорий клиентов. В результате цифровые кредитные продукты становятся важным инструментом повышения финансовой инклюзии.

При этом развитие финтех-инноваций требует совершенствования институциональной среды и регулирования. В Узбекистане государственные органы уделяют значительное внимание формированию благоприятных условий для развития финансовых технологий. Центральный банк страны активно сотрудничает с международными организациями и технологическими компаниями с целью внедрения современных финтех-решений и создания инновационной финансовой инфраструктуры.

Кроме того, регулятору поручено разработать стратегию развития финтех-сектора и обеспечить баланс между инновациями, защитой прав потребителей и устойчивостью финансовой системы²⁵⁹.

Несмотря на значительный потенциал финтех-решений, их внедрение сопровождается рядом новых вызовов. Среди них особое значение имеют риски информационной безопасности, защита персональных данных клиентов и обеспечение устойчивости цифровых финансовых систем. Расширение использования онлайн-сервисов повышает вероятность киберугроз и требует от банков внедрения более сложных механизмов контроля и мониторинга операций.

Таким образом, инновационные финтех-решения играют важную роль в повышении качества банковских услуг и формировании новой модели финансового обслуживания. Их внедрение способствует ускорению финансовых операций, повышению доступности банковских продуктов и усилению конкурентоспособности банковского сектора. В условиях дальнейшей цифровой трансформации экономики Узбекистана финтех-технологии могут стать одним из ключевых факторов модернизации банковской системы и развития финансовой инфраструктуры страны.

RAQAMLI MOLIYA BOZORIDA KRAUDFANDING LOYIHALARI ISHONCHLILIGINI BAHOLASHDA SUN'IIY INTELLEKT MODELLARINING O'RNI: XAVFLARNI MINIMALLASHTIRISH STRATEGIYALARI

Samiyev Abdurashid Qahramonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi,
Abdusalomova Nodira Baxodirovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, i.f.d, professor.

Annotatsiya. Mazkur tezisda zamonaviy raqamli moliya bozorida kraudfanding

²⁵⁹ Узбекистан расширит мандат Центробанка на развитие финансовых технологий. URL: <https://kun.uz/en/news/2025/12/17/uzbekistan-to-expand-the-central-banks-mandate-to-include-development-of-financial-technologies>

loyihalarining ishonchliligini ta'minlashda sun'iy intellekt modellarini qo'llash imkoniyatlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda kraudfanding platformalaridagi axborot assimetriyasi muammosini hal etish, loyihalarni avtomatlashtirilgan skoring tizimi orqali baholash va investorlar uchun moliyaviy xavflarni minimallashtirish strategiyalari tahlil qilingan. Olingan natijalar asosida milliy fintex ekotizimida loyihalarni saralash mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: kraudfanding, sun'iy intellekt, raqamli moliya, investitsion jozibadorlik, risk-menejment, skoring modellari, moliyaviy ishonchlilik.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni mamlakatimiz iqtisodiyotini yangi bosqichga olib chiqishda raqamli texnologiyalar va moliyaviy xizmatlar ko'lamini kengaytirishni ustuvor vazifa qilib belgiladi. Mazkur strategiya doirasida moliya bozorini liberallashtirish, kichik va o'rta biznes sub'ektlari uchun alternativ moliyalashtirish manbalarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda kraudfanding platformalari innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlashning samarali vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Biroq, ushbu platformalarda loyihalarning ishonchliligini baholash va investorlar mablag'larini himoya qilishda an'anaviy usullar yetarli bo'lmayotganligi, jarayonga sun'iy intellekt modellarini joriy etishni taqozo etmoqda.

Hozirgi kunda milliy raqamli moliya bozorida kraudfanding faoliyati shakllanish bosqichida bo'lib, bir qator tizimli muammolar kuzatilmoqda. Asosiy muammolardan biri — investitsiya loyihalarini dastlabki saralash jarayonining mukammal emasligidir. Loyiha mualliflari tomonidan taqdim etilayotgan ma'lumotlarning haqqoniyligini tekshirish mexanizmlari sust rivojlangan, bu esa investorlar uchun firibgarlik xavfini oshiradi. Shuningdek, katta hajmdagi moliyaviy ma'lumotlarni (Big Data) tezkor tahlil qilish imkoniyatining cheklanganligi loyihalarning ishonchlilik reytingini ob'ektiv belgilashga xalaqit bermoqda. Mazkur muammolarni zamonaviy SI algoritmlari yordamida hal etish investitsion muhit jozibadorligini oshirishning muhim shartidir.

Tadqiqot jarayonida sun'iy intellektning mashinali o'rganish (Machine Learning) va neyron tarmoqlari modellari asosida kraudfanding loyihalari risklarini baholash algoritmlari o'rganildi. Rivojlangan mamlakatlarning fintex sohasidagi tajribasi tahlil qilinib, ularning milliy iqtisodiyot sharoitiga mos keluvchi "Smart-skoring" modellari ko'rib chiqildi.

O'tkazilgan tahlillar asosida raqamli moliya bozorini takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Kraudfanding platformalarida loyihalarni avtomatik baholovchi sun'iy intellektga asoslangan "Milliy skoring tizimi"ni yaratish.

2. Investorlar xavfini kamaytirish maqsadida real vaqt rejimida loyihalarning moliyaviy oqimlarini tahlil qiluvchi SI algoritmlarini joriy etish.

3. Loyiha mualliflarining raqamli obro'sini (digital reputation) baholash orqali firibgarlik holatlarini aniqlash imkonini beruvchi anti-fraud modellarini tatbiq etish.

Xulosa qilib aytganda, raqamli moliya bozorida kraudfanding loyihalarining ishonchliligini baholashda sun'iy intellekt modellaridan foydalanish nafaqat texnologik yangilik, balki tizimli xavflarni boshqarishning fundamental shartidir. Taklif etilayotgan "Milliy skoring tizimi" va "Anti-fraud" mexanizmlari axborot assimetriyasini bartaraf etish orqali investorlar ishonchini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni.
2. Lawton K., Marom D. "The Crowdfunding Revolution: How to Raise Capital in the Digital Economy". McGraw-Hill Education, 2013.
3. Goodfellow I., Bengio Y., Courville A. "Deep Learning". MIT Press, 2016.
4. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 24-iyuldagi "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-630-son Qonuni
5. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

ТРАНСФОРМАЦИЯ ШАРОИТИДА БАНК ИННОВАЦИОН ХИЗМАТЛАРИДА КИБЕРХАВФСИЗЛИК ВА АҲОЛИ МОЛИЯВИЙ САВОДХОНЛИГИНИ ОШИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Азларова Азиза Ахроровна

ТДИУ "Банк иши"кафедраси профессори

Аннотация. Мақолада рақамли трансформация жараёнлари шароитида банк тизимида инновацион хизматларни ривожлантириш, уларнинг хавфсизлигини таъминлаш ва аҳоли молиявий саводхонлигини ошириш масалалари ўрганилган. Муаллиф томонидан аҳолининг инновацион банк хизматларидан фойдаланишининг банк тизими барқарорлигига таъсири ҳамда киберхавфсизлик муаммолари аниқланган. Тадқиқот натижасида илмий таклиф, амалий тавсия ҳамда хулоса шакллантирилган

Калит сўзлар: рақамли трансформация, инновацион банк хизматлари, киберхавфсизлик, молиявий саводхонлик, финтех, рақамли банк.

Маълумки, ҳозирда жаҳон молия тизимида рақамли технологиялар жадал суръатларда ривожланиши натижасида, банк тизимида инновацион хизматларнинг кўламини кенгайтиришга олиб қелмоқда. Республикада ҳам банк хизматларида интернет банкинг, мобил банкинг, электрон тўлов тизимлари ва финтех платформалари янги босқичга кўтарилган.

Рақамли банк хизматларининг ривожланиши молия соҳасида янги имкониятларни яратиши билан бирга, бир қатор хавф-хатарларни ҳам келтириб чиқаради, яъни кибержиноятчилик хавфининг ортиши, шахсий маълумотларни ҳимоя қилиш муаммоси, аҳолининг рақамли ва молиявий саводхонлиги етарли эмаслиги каби муаммолар шулар жумласидандир.

Бу жараёнда банк тизимидаги ахборот хавфсизлигини таъминлаш молиявий барқарорлик ва мижозлар ишончини сақлаб қолишдаги муҳим омил саналади.

Маълумотларга кўра, мамлакатимизда интернет тармоғида ахборот тарқатиш ва маълумот излаш имкониятлари кенгайиб, интернетдан фойдаланувчиларнинг сони 31 миллиондан ошган, шундан 14 миллиони ижтимоий тармоқлардан фаол фойдаланиб келади.

Ҳуқуқбузарларнинг интернет ва ижтимоий тармоқлардан ғаразли мақсадларда фойдаланиш ҳолатлари ҳам кузатилиб, сўнгги олти йилда мамлакатимизда кибержиноятлар бўйича мурожаатлар сони 48 бараварга ошган. Ўтган 2025 йилда содир этилган фирибгарлик жиноятларининг 82 фоизи, ўғирлик жиноятларининг 76 фоизи кибермаконда содир этилган. Улар орқали